

O'zbek
xalq ertaklari

MAMATBOY



AKM

YOSHLAR
SEKTORI



O'ZBEK

XALQ ERTAKLARI


AKM YOSHLAR SEKTORI

Uzbekistan Republic Ministry of Labor and Social Protection of Population

МАМАТВОЙ



МАМАТВОЙ




Саноқ визебўй олубда
МУБАРАКИЯТ
2018 йил 19 маини

Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng boy va rang-barang janrlaridan biridir. Ular sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxon ongiga tez yetib boradi. Ertaklarda xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g‘alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlanadi. Yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik kabi g‘oyalalar ulug‘lanadi.

Kichkintoylar o‘zлari tinglagan yoki o‘qigan ertaklari yordamida atrof olam bilan tanishib, nima yaxshi-yu nima yomonligini bilib o‘saveradilar.

O‘ylaymizki, bu kitobcha ham bolajonlarimizning doimiy hamrohiga ayylanadi, ularni ezgulik sari yetaklashga xizmat qiladi.



MAMATBOY

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda, olis bir shaharda chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning Mamatboy degan bittayu bitta o‘g‘li bo‘lgan ekan.


Kampirning otameros bir hovlisi bor ekan. Bir kuni chol-kampir hovlisini sotmoqchi bo‘libdi. Xaridorlar uyni uch yuz tillaga baholashibdi. Uyni sotgach, chol-kampir maslahatlashib, o‘g‘lini savdo ishiga o‘rgatmoqchi bo‘lishibdi.


Chol o‘g‘lini chaqirib:

– Bolam, biz endi qarib, kuch-quvvatdan qoldik. Sen mana bu yuz tillani olib, savdogarlik qilgin – debdi. Bola tillani beliga tugib, yo‘rg‘a eshagini minib: „Hayyo-hay“, degancha safarga jo‘nabdi.



Yurib-yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bozorga yaqin bir joyda odamlar to‘planishib turgan emish, yaqiniga borib odamlarning birlidan: „Bu yerda nima bo‘lyapti?“ deb so‘rasa, u: „Bu yer ilm beradi-gan joy. Kimki yuz tilla to‘lasa, bu yerdan bir yil ichida ilm o‘rganib chiqadi“, debdi. Bizning Mamatboy ham ilm o‘rganishni havas qilib yurar ekan. Bu gapni eshitgach: „Savdo ishidan nima foyda, yoshlikda ilm o‘rganib olish kerak“, deb yuz tillani to‘labdi va havas bilan astoydil o‘qiy boshlabdi. Oradan bir yil ham o‘tib ketibdi. Mamatboyning zehni o‘tkirlik qilib, ustozidan ham o‘zib ketibdi. Bir kuni u uyiga qaytmoqchi bo‘libdi. Ammo yuray desa, yo‘l uzoq. Aksiga olib hech narsasi qolmagan, hatto eshagini ham sotib yuborgan ekan. Nima qilishini bilmay hayron bo‘lib turganida, ustozining rahmi kelib unga bir eshak beribdi. Eshakni minib yo‘lga







tushgan Mamatboy bir yarim oy deganda uyiga yetib kelibdi. Bir yildan beri kutib o'tirgan ota-onasi o'g'lini ko'rib juda quvonibdi. Onasi u yoqtiradigan ovqatlarni pishirib beribdi. Ancha o'tirib, hol-ahvol so'rashgach, kampir o'g'liga qarab:

- Bolam, yoking orqada kelyaptimi? – deb so'rabdi. Mamatboy nima deyishni bilmay, indamay qo'ya qolibdi. Bir fursat yotib, damini olgandan keyin ota-onasiga:
- Xafa bo'lmasangizlar bir gap aytaman, – debdi. O'g'lining nimanidir yashirayotganligini sezgan ota-onasi:

– Mayli, ayt, bolam, – deyishibdi. Shunda Mamatboy o'z boshidan kechirgan hamma hodisalarni aytib beribdi. Chol-kampir uning qilgan ishidan biroz ranjibdi. Oradan bir hafta o'tibdi. Chol-kampir yana maslahat qilib, o'g'liga yana yuz tilla berishibdi va boshqa narsaga sarf qilmagin, deb tayinlab uni savdoga jo'natibdilar. Bola cho'l-u biyobonlar, tog'-u toshlardan oshib, axiri bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir joyda odamlar to'planishib turgan emish. Mamatboy nima bo'layotganligini so'rab-surishtiribdi. O'sha yerdagi odamlardan biri: „Bu yer musiqa maktabi. Bu yerda cholg'u asbolarini chalishni o'rgatishadi. Kimki yuz tilla to'lasa, bir yilda ajoyib sozanda bo'lib chiqadi“, debdi. Mamatboy o'ylab turib: „Ota-onam urishsa urishar; ilm o'rgandim, endi buni ham o'rganib qo'yay“, deb yuz tilla to'lab muktabga kiribdi. Mamatboy bir yil ichida maktabdagagi hamma cholg'u asboblarni chalishni o'rganibdi. Uning zehni yana charxlanib, qisqa fursatda ustozidan ham o'zib ketibdi. Ustozi

shogirdining juda o‘quvli bo‘lganidan quvonibdi. Ammo uyiga ketishga hech nimasi qolmaganligi uchun unga bitta ot va yo‘lga kerakli oziq-ovqatni berib jo‘natibdi. Mamatboy uch hafta deganda uyiga yetib kelibdi. Bir yildan beri yo‘liga ko‘z tutib, zoriqib o‘tirgan ota-onasiga o‘g‘lini ko‘rib juda sevinishibdi. Chol-kampir bolasidan holahvol so‘rab bo‘lib:

– Bolam, yueling endi keladimi? – deb so‘rabdi. Mamatboy yo‘l charchog‘ini chiqarib olgandan keyin, ota-onasiga bo‘lgan voqeani bir boshidan aytib beribdi. Buni eshitgan chol bilan kampir o‘g‘lidan xafa bo‘libdi va uni qattiq koyishibdi. O‘n kundan keyin chol-kampir ikkisi maslahat qilishibdi. Otasi uni chaqirib:


– Bolam, bisotimizda atigi uch yuz tilla bor edi, ikki yuz tillani sarf qilib kelding. Endi bor-yo‘g‘i yuz tillagini pulimiz qoldi, shuni ehtiyyot qilib, har narsaga sarf qilmasdan, arzon mollardan olib kel, jon bolam! – deb yana savdoga jo‘natibdi. Mamatboy ota-onasi bilan xayrashib, yana noma’lum bir shaharga jo‘nab ketibdi. Yurayura bir shaharga yetganda toyi hurkib ketib, odamlar to‘planib turgan joyga borib to‘xtabdi. Yana odamlarning to‘p bo‘lib, talashib turganlari ustidan chiqqan Mamatboy: „Nega to‘planib turibsizlar?“ deb so‘rasa, ulardan biri: „Bu yerda shaxmat o‘yini o‘rgatiladi. Kimki yuz tilla to‘lasa, shaxmat o‘ynashni o‘rganadi“, debdi. Mamatboy o‘ylab turib: „Yuz tilla berib ilm o‘rgandim, yuz tilla berib cholg‘uvchi bo‘ldim, endi yana yuz tilladan qochib buni o‘rganmaymi? Kel, tavakkal, buni ham o‘rganib qo‘yay“, deb ahd qilibdi va qo‘lidagi yuz tillani to‘lab, shaxmat o‘ynashni o‘rganibdi. Bir yilda shaxmat o‘yinini juda yaxshi o‘rganib, keyin yurtiga

qaytibdi. Ko‘p yo‘l yurib, uyiga yetibdi. Ota-onasi o‘g‘lini sog‘inib, yo‘liga ko‘z tutib o‘tirgan ekan. O‘g‘lining diydoriga to‘yib, o‘g‘li kelib uyi ham to‘lib qolgan chol-kampir:



– Bolam, yuking qani, orqada kelyaptimi? – deb yo‘lga chiqib qarasa, yana hech nima yo‘q emish. Chol yana hayron bo‘libdi. Mamatboy bu safar shaxmat o‘yinini o‘rganganini aytib beribdi. Chol bilan kampir ilgarigidan ham battarroq xafa bo‘lishibdi. Uydagi barcha pullarni ishlatib bo‘lganligini bilgach, Mamatboyning boshi qotibdi. Nochorlikdan qiynalib qolgan ota-onasi uni bir boyga xizmatkor qilib berishibdi. Mamatboy judayam serg‘ayrat, chaqqon bola ekan, uch kun o‘tmasdan boyning xizmatkorlari orasida tanilib qolibdi. Boy ham uning chaqqon va ishbilarmonligiga qoyil qolibdi.








Kunlardan bir kuni boy uzoq shahardan bir necha ming yilqi va qo'y olib kelayotgan ekan, yo'lda ularning hammasi cho'llab qolibdi. Dashtdan suv qidirib-qidirib bir quduq topishibdi. Quduq juda eski ekan. Boy xizmatkorlarini quduqqa tushirmoqchi bo'libdi, ammo ular churq etmabdi. Axiri ularning orasidan chiqib kelgan Mamatboy: „Bu ishni men bajaraman“, deb beliga arqon bog'lab, quduqqa tusha boshlabdi. Quduq juda chuqur ekan, tubigacha tushib ketaveribdi. Axiri oyog'i quduq tagiga tegibdi. Qarasa, quduq tagi keng, hamma yer qorong'i, qup-quruq, suv degan narsa yo'q emish. Belidan arqonni yechib, quduqning chekkarog'iga borib qarasa, bitta xum turgan mish. Undan yalt-yult tilla qaynab chiqayotgan emish. Hayratdan qotib qolgan Mamatboy o'ziga kelgach, olib tushgan chelagini darhol tillaga to'ldirib yuqoriga uzatibdi. Bo'shagan chelak qaytib tushibdi. Shunday qilib xumdag'i tillani tamom qilibdi, keyin arqonga chirmashib yuqoriga chiqa boshlabdi. Shunda boy: „Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik bo'ladi. Undan ko'ra, bola shu quduqda o'lib ketgani yaxshi“, deb arqonni shartta qirqib yuboribdi va hamma tillani olib, yo'lga ravona bo'libdi.

Endi gapni Mamatboydan eshiting: Mamatboy ko'zini ochsa, o'zini quduqda ko'ribdi. „Attang, boy yaxshilikka yomonlik qildi. Ajalim shu yerda ekan-da“, deb juda xafa bo'lib quduqning tubiga yuribdi. Atrofiga nazar solsa, bir tomonda eshik ko'rinishibdi, eshikdan kirib qarasa, juda yaxshi bezatilgan bir uy emish. Bu uy bir devniki ekan. Mamatboy eshikdan kirgan vaqtida dev uyning o'rtasida yotgan ekan. Uyning devorida bir qancha cholg'u asboblari osig'liq emish.



Yigit devordan bir g‘ijjakni olib chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo‘lib, hushsiz yotgan ekan, g‘ijjak tovushini eshitib, o‘ziga kelibdi va yetti kun deganda tuzalibdi.

— E bola, sen kimsan? Menga ko‘p yaxshilik qilding. Tila tilagingni! — debdi dev Mamatboyga qarab. U devning o‘ziga kelganini sezmagan ekan. Ovozini eshitib qo‘rqib ketibdi va darhol devga salom beribdi. Dev alik olib, uning bu yerga qanday kelganini so‘rabdi. Mamatboy devga boshidan kechirganlarini aytib beribdi. Unga devning rahmi kelib:







– Sen meni o‘limdan olib qolding, – debdi. Mamatboy uning tillasini quduqdan chiqarib yuborganini va shu sababli kechirishini so‘rabdi. Dev uni kechiribdi. Mamatboy:

– Meni yorug‘ dunyoga olib chiqib qo‘ysang, bas, – debdi. Dev uni yelkasiga mindirib, bir zumda quduqdan chiqarib qo‘yibdi. Mamatboy dev bilan xayrlashib, boy yilqilarining oyoq izidan yo‘lga ravona bo‘libdi. Mamatboy yurib-yurib boyning izidan yetib olibdi va yana ilgarigidek boyning xizmatini qilaveribdi. Uni ko‘rgan boyning esi chiqib ketibdi, ammo o‘zini ko‘rmaganlikka olib yuraveribdi-yu, bolani yo‘q qilish payiga tushibdi. Bir kuni boy xotiniga shunday xat yozibdi: „Mendan sizlarga ko‘pdan ko‘p salom. Yaqinda borib qolaman. Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o‘ldirib yubor. Sababini borganimda aytaman“. Xatni taxlab, muhr bosib: „Endi buni kim uyga yetkazadi?“ desa, hech kim indamabdi, chunki boy oldinroq boshqa xizmatkorlari bilan til biriktirib qo‘ygan ekan. Xatni oxiri Mamatboy olib ketadigan bo‘libdi. Yura-yura bir joyga yetganida o‘ylabdi: „E, men qancha ovora bo‘lib ilm o‘rgangan edim, boyning xatini bir o‘qib ko‘rmaymanmi?“ deb xatni ochib qarasa, gap haliday. Mamatboy xatni darrov yirtib tashlabdi-da, o‘rniga quyidagi so‘zlarni yozibdi:

„Rafiqam G‘ilmonnisoga. Duoyi salomdan so‘ng andog‘ ma’lum va ravshan bo‘lsinkim, men bu o‘lkada eson-omon yuribman. Nasibam bo‘lsa, yaqinda borib qolaman. Ushbu yuborgan xizmatkor bola Mamatboy juda epchil ekan, baraka topsin, men buyurgan eng muhim ishlarni yakka o‘zi muhayyo qildi. Davlatimizning ortishiga sababchi bo‘ldi. Mamatboyni yaxshilab kutib ol, darhol katta qizimizni shunga to‘y qilib ber, toki men borganimda kuyov bo‘lib kutib olsin“. Mamatboy xatni boyning yozuviga o‘xshatib yozibdi va uning oxiriga boy nomidan imzo chekibdi. U bir haftada yetib kelib, xatni boyning xotiniga beribdi. U xatni o‘qib: „O‘zlar aytibdilar, to‘y qilmasa bo‘lmas ekan“, deb ertasigayoq to‘y-tomosha qilib, katta qizini Mamatboyga beribdi. Bir necha kun deganda, boy ham yetib kelibdi. Eshikdan uni qizi bilan kuyovi yaxshilab kutib olishibdi. Boyning joni hiqildog‘iga kelibdi-yu, ammo sir boy bermabdi, o‘zini zo‘rg‘a tutib yuribdi. Yigit ham qaynotasining hurmatini qilib yuraveribdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, boy xotinini chaqirib:








– Sen nima ish qilib qo‘yding? – deb uni koyibdi.


Xotini:

– O‘zingiz aytibsiz-ku! – deb xatni ko‘rsatgan ekan, boy:

– Bu men yozgan xat emas, obbo qurg‘ur-ey, mendan ham usta ekan, – deb Mamatboyga qoyil qolibdi. Lekin uni yo‘q qilishni kecha-yu kunduz o‘ylab yuraveribdi. Kunlarning birida yigitning esiga ota-onasi tushib: „Xotinim bilan borib ota-onamni ko‘rib kelay“, deb boydan ijozat so‘rabdi. U yurib-yurib bir katta shaharga kelibdi. Shahar podshosining saroyi yonidan o‘taturib, darvozaga osilgan bir necha odamni ko‘ribdi. Surishtirsa, podshoning bir go‘zal qizi bo‘lib, u shaxmat o‘ynashga juda usta ekan. Kimki o‘yinda meni yutsa, o‘shanga tegaman, deb shart qo‘ygan ekan. Haligi osilgan odamlar shaxmat o‘yinida yutqazgan ekan. Mamatboy o‘ylab turib: „Ikki hunarim meni ikki marta o‘limdan olib qoldi,




uchinchisi ham bekor ketmas. Kel, tavakkal, shu o'yinni ham o'y-nab ko'ray“, deb shoh qizining yoniga boribdi. Qiz uni mensimagan-dek bo'lib qabul qilibdi. O'yin boshlanibdi. Qiz ham, yigit ham bir-biridan sira qolishmabdi. Uch kun deganda qiz yutqazibdi. Qiz va otasi Mamatboyning shaxmatga ustaligiga qoyil qolishibdi. Podsho yigitga qizini bermoqchi bo'lgan ekan, yigit unamabdi. Mamatboyni yoqtirib qolgan podsho shu yerda qolishini istab, unga bir shaharni beribdi. Podshoning sovg'asidan boshi osmonga yetgan Mamatboy xursand bo'lib uyiga ravona bo'libdi.





Uyiga borib, ota-onasini shaharga olib kelibdi. Shaharda ular kambag‘al, beva-bechora, yetim-yesirlarga muruvvat qilibdi. Mamatboyning qaynotasi ham u boshqarayotgan shaharda yashar ekan. Kunlardan bir kun u: „Mamatboyning ustidan shikoyatim bor“, deb kelibdi. Lekin kuyovini tanimabdi. Mamatboy qaynotasining arzini obdan eshitgach, uning barcha qilmishlarini o‘ziga aytib beribdi. Boy kuyovini tanib, juda yomon ahvolga tushibdi va uning oyog‘iga yiqlib, o‘z qilmishlariga tavba qilibdi. Mamatboy ham qaynotasini kechiribdi. U yillar o‘tib farzandli bo‘libdi. Farzandlarini bir us-tozga shogirdlikka berib hunar o‘rgatibdi. Shunday baxtli kunlarning birida farzandlariga ota-onasi bergen uch yuz tillani bekorga sarflamay, ilm o‘rganib, hunar o‘rganib shunday inson bo‘lganligini aytib beribdi. Ular ham otasi kabi ulg‘ayishibdi. Shunday qilib Mamatboy murod-maqsadiga yetibdi.



82(50')
X 22

Mamatboy / [Matn]: ertak. – Toshkent:
„Ensiklopediya“ nashriyoti MChJ, 2022 y.– 24 bet.

ISBN 978-9943-07-759-1

UO'K 398.21(=512.133)
KBK 82(50')

RASSOM:
SHOHIRUX TOSHTURDIYEV

O'zbek xalq ertaklari

„Ensiklopediya“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir Sunnat Xo'jaahmedov
Badiiy muharrir Shohrux Toshturdiyev
Kompyuterda sahifalovchi Shahnoza Sobirova

Bosishga ruxsat etildi 25.10.2022. Bichimi 84×108¹/₁₆.
„Times New Roman“ garniturası. 16 kegl.
Hisob-nashriyot tabog'i 1,05.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 828-22.

„Credo Print“ MChJ kitob fabrikasida chop etildi.
Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi. 160.



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya_nashriyoti_MU2021



Ensiklopediya_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-759-1



9 789943 077591